



MILLIY VA JANGOVAR RUHNI YUKSALTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Bazarbayev Xamid Ermetovich

*O‘R HX va MU serjantlar tayyorlash oliy maktabi moddiy ta’minsikli katta
yo‘riqchisi, katta serjant, Samarqand shaxri*

Annotatsiya: Maqolada milliy va jangovar ruhning asl mnosi nima ekanligi uning negizini tashkil etadigan omillar hamda milliy va jangovar ruhni inson psixologiyasiga singdirish shu bilan bir qatorda milliy va jangovar ruhni yuksaltirish uchun pedagogik ko‘nikmalarni inson psixologiyasida yuksaltirish.

Kalit so‘zlar: malaka, ko‘ikma, iqtidor, jangovarlik ruhi, harbiy psixolog, axloqiy-ruhiy.

Inson dunyoga kelar ekan unda avvalo mardlik, shijoat hamda jangovarlik ruhini shakillantirish eng asosiy burchimizdan biri hisoblanadi. Bu insonga hos bo‘lgan fazilatlardan biri demakdir. Avvalo inson ongi uning ma’naviyatiga dahldor bo‘lgan oddiy tushunchalarni singdirishdan boshlagan afzalroqdir. Shunday tushunchalarning biri bu milliy ruh va unga chambarchas bog‘liq bo‘lgan milliy jangovar ruhdur. Milliy ruh bu milly yuksalish demakdir. Avvalo vatan uning tushunchasi uning muqaddas ekanligi yagona ekanligi hamda hamma tushunchalarning mehr, muhabbat va shu kabi bir qancha so‘zlarning o‘zida mujassam etganligi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalar vaqtlar o‘tib inson ulg‘ayishi bilan yanada tushunarli bo‘lib boorish bilan bir qatorda bu oddiy so‘zlar zamirida olam-olam mno mujassamlashganligi o‘z tasdig‘ini topib boraveradi. Shu sababli ham insonlar yillar o‘tgani sayin vatan muqaddas uni har qarichi azizligini bilib uning bag‘rida o‘sayotganligidan faxrlanib uni himoya qilish uchun Milliy armiyamiz saflarida hizmat qilishni uning har qarichini ko‘z qorachig‘iday asrashni o‘zlari uchun o‘ta masulyatli burch hisoblab shu kasb egasi bo‘lishni hohlashadi. Bundan bir necha yillar ilgari Yaratganning buyuk in’omi-mustaqillik tantana qilib, armonlarning ushalish davri keldi. Milliy taraqqiyotda boshqa sohalarda kimdandir o‘zdik, kimdandir ortda qoldik ham. Nihoyat dunyo qarshisida Yangi O‘zbekiston degan ibora paydo bo‘ldi. Bugun hayot, zamon yangilanmoqda qalb va ruh, ong va tafakkur yangilanmoqda. Mustaqillikdan so‘ng yurt farovonligi chegaralarimizning daxilsizligi yo‘lida juda ko‘p salmoqli ishlar olib borildi. Bularning hammasi yagona va muqaddas vatanimiz fuqarolarimiz uchungina ularning tinchligi yo‘lida qilinmoqda. Bundan tashqari mamlakat fuqarolar xavfsizligi yo‘lida Mudofaa



vazirligi, doktrinasi hamda hizmat o'tash uchun keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda hamda ularning salohiyatini milliy ruhini yuksaltirish uchun turli xil chora tadbirlar olib borilmoqda. Masalan mamlakatimizning yangi Mudofaa doktrinasi asosida Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy qurol-yarog' va texnikalar bilan ta'minlash harbiy xizmatchilarning jismoniy va intellectual tayyorgarligini oshirish bo'yicha ulkan islohatlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Harbiy qism va bo'linmalarning undagi xizmatchilarning moddiy-texnik bazasi mustaxkamlanib, o'quv mashg'ulotlari uchun muhim zaruriy bo'lgan qurol aslahalar, anjomlarning zamonaviylari berilmoqda hamda ularning poligonlarda o'quv mashg'ulotlarni amalga oshirishlari uchun qulayliklar yaratib berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida Qurolli Kuchlarimizga juda katta ahamiyat berilmoqda askarlarimizning harbiy bilim, ko'nikma va salohiyatlarini oshirish maqsadida juda muhim chora va tadbirlar amalga oshirimoqda hamda salohiyatli, bilimli askarlarimiz har tomonlama rag'batlantirilmoqda. Bu ham bo'lsa askarlarimizga milliycha va jangavorona ruhni yuksalishning yana bir salmoqli yo'li desak adashmagan bo'lamiz albatta. Askarlarimizga nafaqat O'zbekistonda istiqomat qilayotgan har bir fuqarolarimizga milliy ruhni shakillantirganimizdagina ularni yurtimizga xalqimizga nafaqat har bir insonga sodiq qilib tarbiyalay olishimiz mumkin. Darhaqiqat milliy g'urur va milliy ruh vatanparvarlikning oliy mezoni hisoblanadi. Shubhasiz milliy g'oya, milliy ruh, milliy o'zlik, albatta o'z ajdodlarining hayotiga nazar tashlash ularning tarixini o'rganish bilan singdiriladi. Tarixga o'tmishga nazar tashlar ekanmiz uning beshavqat ekanligini hech kimni ayab o'tirmaganligini yaqqol guvohi bo'lishimiz mumkin albatta buning yaqqol nmunasi sifatida buyuk ajdodimiz Amir Temurni ko'rsatsak mubolag' bo'lmaydi uni. Xalq bosqinchisi deb atashgan olis tarix shunga guvohki bizning ajdodlarimiz hech qachon bosqinchi bo'lishmagan ular yurtning har bir qarichini; tuprog'ini, yerni, havosini, suvni, merosini asrab avaylashgan ko'z qorachig'idek asrashgan desak adashmaymiz, Tarix bunday tuhmatlarga ko'p guvoh bo'lgan lekin xalq, fidoiy insonlar yillar shamoli necha-necha ajdodlar bunday adolatsizliklarni qabul qila olishmagan albatta ular o'zlarining asarlarida ham ajdodlarimiz bosqinchilar emas aksincha xalq qahramonlari fidoiylari bo'lganliklarini yozib qoldirishgan. Buyuk vatanimiz mustaqillikga erishganidan so'ng biz ajdodlarimiz xalq dushmanlari emas aksincha o'z yurtining, xalqining fidoiy mard farzandlari bo'lishganini anglab yetdik. Shuncha yo'lni bosib o'tish uchun ham matonat, chidam, bardosh va albatta mustahkam iroda zarurligini bilishimiz lozim. Biz hozir vatanimiz, xalqimiz deb atashimiz uchun ham juda katta mashaqqat talab etilgan. Uning



chegaralari dahilsizligini, erkinligini o'ylab tunni tongga ulkashning ham o'zi bo'lmaydi albatta. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgandan so'ng vatan uchun jonini ham berishga tayyor bo'lgan har bir vatan farzandi, har bir vatan ximoyachisi xurmat, e'tibor, e'zoz topdi albatta. Mustaqillikdan so'ng alohida bir sanani 14-yanvarni Vatan ximoyachilari kuni sifatida nishonlanishi ham ularga bo'lgan hurmatning namunasi bo'lgan desak adashmagan bo'lamiz albatta. Bu sanada ko'plab Vatan ximoyachilarimiz mnunosib taqdirlanadilar Yurtboshimiz tashabbusi bilan ularni qilayotgan xizmatlariga yarasha taqdirlash hamda ularni tinch, osoyishta, qulay ishlashlari yashashlari uchun alohida imkonyatlar yaratib berish davlatimiz nazoratida bo'ladi. Hamda ularda yurtga muhabbat, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun pedagogic tomondan bilim olishlariga ham alohida sharoitlar yaratib berilmoqda. Amalga oshirilayotgan bu tashabbuslardan inson albatta ham ruhan ham mnan rivojlanadi desak adashmagan bo'lamiz. Avvalo insonni yurtga sadoqatli, mard shijoatli qilib tarbiyalash uchun inson ongi va uning psixologiyasiga - Vatan, Sadoqat, Xalq, Ozodlik, Tinchlik kabi zamirida buyuk va chuqur yotadigan so'zlarni singdirishimiz ularning jismoniy boyligidan ko'ra avvalo ma'naviy bo'shlig'ini vatanga muhabbat tushunchalari bilan to'ldirishimiz zarurdir. Yaqin uch yillikda Mudofaa tizimida inson omili hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'z qasamyodiga sodiq, keng bilim va malakaga ega aql-zakovatli, mard va azmu shijoatli harbiy armiyaning qudrati, kuchi hamda asosidir. G'alabaga yetaklaydigan ham, shaxiy tarkibni tarbiyalaydigan va o'z ortidan buyuk maqsadlarga, marralarga yetaklaydigan ham shulardir. Har qanday tahdid va xatarlarga o'zining bilim, salohiyati, kuchli irodasi, sabr matonati bilan munosib zarba berishga tayyor milliy armiyamiz bor ular xalqimizni mamlakatimizni ishonchli va mustahkam qalqonidir. Su sababli ham shu kunlarda harbiy kadrlarning jangovar qobilyati va tayyorgarligi bilan bilan birga vatanparvarlik tarbiyasiga jiddiy msulyat bilan yondashib kelmoqdamiz. Askarlarimizga faqatgina harbiy jangovarlik, jang taktikasining o'zigina yetarli emas ularga ruhan ozuqa milliy ruh, milliy g'urur tushunchalari singdirilishi lozimdir. Qachonki askarning milliy ruhi, milliy g'ururi, ma'naviyati kuchli bo'lsagina yoshlarga hamisha o'rnak va nmuna bo'la oladi. Shuning bilan birga davlatimiz rahbari bu sohada qilinadigan ishlar hali ko'pligini, harbiy-mamuriy sektorlarni ishini takomillashtirish ustuvor vazifa bo'lib qolishini qayt etdi. Mudofaa sohasidagina emas davlatning boshqa organlari hamda sektorlariga ham alohida e'tibor qaratish kerakligini bu sohalarda hamma amaliy, nazariy chora tadbirlarni takomillashtirishni hamda amaliyotda qo'llashni tadbqiq etish kerak. Bunda avvalambor bir yoqadan bosh chiqarib birgalikda harakat qilishni, bir yoqadan bosh chiqarishni milliy birdamlikni talab qiladi. Milliy birdamlik



tuyg'usi milliy ongning negizidir. Milliy birdamlik yetuk mukammal ma'naviy fazilat sifatida, milliy ongi rivojlangan mamlakatlarda to'laroq aks etadi. Harbiy xizmatchilarga, askarlarimizga psixologiyaning ahamiyati ham yuqoridir. Mamlakatning milliy manfaatlaridan, jahondagi va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatdan, holatidan milliy xavfsizlikka bo'lgan tahdid darajasidan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki davlatimiz o'zining xavfsizligi uchun albatta bu sohada ishlayotgan askarlarimiz, harbiy xizmatchilarimizga albatta psixologig motivatsiya ham zarurdir. Jangovar harakatlarga psixologik tayyorgarlik bu alohida e'tibor talab etadigan nozik jarayon hisoblanadi. Bunda avvalo harbiy xizmatchining, askarning ma'naviy-psixologik holatini ahamyatga olishimiz kerak. Harbiy xizmatchining ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik jarayoni quydagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

Vatanga, qasamyodga sadoqat, vatanparvarlik, harbiy kasbga muhabbat, harbiy burchga masulyat kabi ma'naviy-ahloqiy sifatlarni harbiy xizmatchilarda rivojlantirish, yuksaltirish orqali yetuk, qobiliyatli, ma'naviyati kuchli vatanga sodiq qilib rivojlantira olishimiz mumkin desak adashmagan bo'lamiz albatta. Yuqorida keltirilganlarni bajarish orqaligina askarlarimizda, harbiy xizmatchilarimizda ma'naviy-psixologig kasbiy sifatlarni oshirish mumkin bo'ladi.

Xulosa. Maxsus poligonlarda tlim otryadlarida ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik ishlarini muntazam, to'g'ri va o'z vaqtida doimiy yo'lga qo'yish orqali yuqorida keltirilgan hislarni harbiy xizmatchilar hamda askarlar ruhiga ijobiy ta'sir ko'rsatishimiz hamda mamlakat rivaqi yo'lida uning manfaatlari yo'lida buyuk ishlarni amalga oshirgan bo'lamiz desak bo'lmaydi. Bundan tashqari Maxsus harbiy talim muassasalarida bo'lajak harbiylarni keying xizmat faoliyatidagi davlatni xavfsizligini qo'riqlash, jamoat nazoratini o'rnatish, milliy tinchlik va osoyishtalikni o'rnatish, favqulotda holatlar oqibatlarini bartaraf etish kabi vazifalarni bajarish davomida ularning qo'rquvga tushib qolishi, o'ziga ishonchsizlik xolatlarini oldini olish, o'zlarini yo'qotmaslik muammoli vaziyatlarni ijobiy hal qilib chiqib keta olishlari uchun maxsus harbiy tlim muassasalarida milliy g'urur, jangovar ruhni va jismoniy jangovar hamda tayyorgarlik ishlarini olib borish ustuvor vazifalardan biridir. Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan tarzda harbiylarning, askarlarning psixologiyasini yuksaltirish hamda ularning ruhiy xolatini yaxshilash maqsadida tizimli ravishda turli treninglar, dars mashg'ulotlari tashkillashtirilib g'olib va sovrindorlar uchun turli medallar va esdalik sovg'alari berilsa yanada yaxshiroq natijalarni olish mumkin. Qolaversa bu sohada yetuk, o'z kasbining mohir pedagoglari jalb etilsa maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlash va Axloqiy va psixologik tayyorgarlik maqolalari//Harbiy entsiklopedik lug'at/ Ed. Gorkin A.P.- M:Buyuk rus entsiklopediyasi, 2011. – T. 2. S. 95-96. – 816 b. –5000 nusxa – ISBN 5-85270-219-6.
2. T.V Egorovich Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-psixologik tayyorgarligi ijtimoiy jarayon sifatida va uni zamonaviy sharoitda optimallashtirish yo'llari, sotsiologiya fanlari nomzodi 20177
3. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME I ISSUE 8 UIF-2022:8.2 ISSN: 2181-3337
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qurolli Kuchlarning 27 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqidan
6. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-marifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida PQ-3898-son 04.08.2018.